

MAXSUS VOSITALARDAN FOYDALANISH VAQTIDA YUZAGA KELADIGAN JAVOBGARIKK MASALALARI

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ
ИСПОЛЬЗОВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

LIABILITY ISSUES ARISING DURING THE USE OF SPECIAL MEANS

Leytenant Rahimov Sherzod Alisher o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fokulteti tinglovchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maxsus vositalardan foydalanish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan harbiy xizmatchilar, xodimlar va fuqorolarning javobgarlik masalalari bir qator yoritib berilgan. Shuningdek quyida bir qancha soha rivoji uchun taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: konsepsiya, farmon, qonun, jinoyat kodeksi, modda, maxsus vositalar, rezina tayoqlar, kishanlar, kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli modda, jinoiy javobgarlik.

Аннотация: В этой статье рассматривается ряд вопросов ответственности военнослужащих, личного состава и гражданских лиц, которые могут возникнуть при использовании специальных средств. Также ниже изложены предложения и рекомендации по развитию нескольких отраслей.

Ключевые слова: понятие, постановление, закон, УК, вещество, специальные средства, резиновые палочки, наручники, сильнодействующее, ядовитое вещество, уголовная ответственность.

Annotation: this article covers a number of issues of responsibility of military personnel, personnel and citizens that may arise during the use of special tools. Also below are descriptions of proposals and recommendations for the development of many industries.

Keywords: concept, Decree, Law, Criminal Code, substance, special means, rubber rods, shackles, strong-acting, toxic substance, criminal liability.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi qabul qilingan PF-27 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, Respublikamiz hududida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashga bir necha davlat subektlari mas’ul etib belgilangan. Ushbu farmonning 2-bobi 6-moddasiga asosan Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi sub’ektlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda

vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.¹

Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi sub'ektlarga kiradi.

Shunday huquqiy asoslarga tayangan holda shahar va qishloqlarimizda, aholi gavjum maskanlarda, istirohat bog'larida fuqorolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Milliy Gvardiya va Ichki ishlar vazirligining harbiy xizmatchi va xodimlari tunu-kun xizmat vazifalarini o'tashmoqda. Shu vaqt davomida o'zini va fuqorolarni turli xavflardan himoya qilish va zaruriy mudofaaga o'tish uchun bir nechta turdagи maxsus vositalardan foydalilanildi. Rezina tayoqlar, aerozollar, qo'l kishanlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Xizmat jarayonini sifatli tashkil etish va jinoyatlarning oldini olish yuzasidan quyidagi holatlarda Milliy Gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari maxsus vositalarni qo'llaydi:

2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan 647-sonli O'zbekiston Respublikasining "Milliy Gvardiya to'g'risida"gi qonunining 30-moddasi Maxsus vositalarni qo'llash deb nomlanadi. Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) maxsus vositalarni:

-fuqaroga yoki Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;

-jinoyatga yoki ma'muriy huquqbazarlikka barham berishda;

-Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko'rsatilishiga barham berishda;

-jinoyatni sodir etishi chog'ida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ko'rib qoltingan, yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda;

-qurolli qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsni ushlashda;

-ushlab turilgan shaxslarni olib borish va qo'riqlashda, shuningdek qochishga urinishini, atrofdagilarga yoki o'ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida;

-zo'ravonlik ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g'ayrihuquqiy xatti-harakatlarga chek qo'yishda;

¹ PF-27-son O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Konsepsiysi. 2021 yil 29 noyabr

-haydovchisi Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) to‘xtash to‘g‘risidagi talabini bajarmagan transport vositasini to‘xtatishda;

-jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etayotgan yoxud sodir etgan shaxslarni aniqlashda;

-muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarni sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sib qo‘yishda qo‘llash huquqiga ega.

Milliy gvardyaning harbiy xizmatchilar (xodimlari) quyidagi maxsus vositalarni:

a) rezina tayoqlarni, shikastlantiruvchi qurolni, qo‘lkishanlarni yoki boshqa bog‘lash vositalarini, elektroshok qurilmalarini, ta’sirlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan vositalarni, xizmat hayvonlarini quyidagi hollarda:

-fuqaroga yoki Milliy gvardyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;

-jinoyatga barham berishda;

-Milliy gvardyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;

-jinoyatni sodir etishi chog‘ida ko‘rib qolangan yoki uni sodir etganidan keyin darhol yashirinishga urinayotgan shaxsni ushslashda;

-qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushslashda;

-zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

b) maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar, muhofaza qilinadigan obyektlarni (hududlarni) va shaxslarni himoya qilish, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sish vositalarini quyidagi hollarda:

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

v) chalg‘itma ta’sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalarini quyidagi hollarda:

-zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

g) zirhli mashinalar, maxsus mashinalar, suv bilan zarba beruvchi mashinalar va katerlarni quyidagi hollarda:

-qurolli qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsni ushlashda;

-zo'rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari vakillariga nisbatan kuch ishlatish bilan bog'liq ommaviy tartibsizliklarga hamda ruxsat etilmagan mitinglarga chek qo'yishda qo'llash huquqiga ega.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) ushbu Qonunda o'qotar qurolni qo'llash ruxsat etilgan barcha hollarda maxsus vositalarni qo'llash huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinish turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko'rinish turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni, shu jumladan shikastlantiruvchi qurolni qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti va sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Odamning boshiga, bo'yniga, o'mrov suyagiga, qormiga, jinsiy a'zolariga, yurak sohasiga rezina tayoq bilan zarbalar berish taqiqlanadi, bundan odam qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti va sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Milliy gvardiya ta'minotida turgan maxsus vositalarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.²

Shu o'rinda yuqoridagi 30-moddaning so'ngida maxsus vositalarni qo'llash taqiqlangan holatlar ham belgilangan va maxsus vositalarni bunday holatlarda qo'llash qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Xo'sh ushbu javobgarlik o'zi qanday? Yuzaga kelgan vaziyatning keskinligini hisobga olmagan holda maxsus vositalardan foydalansa, qanday javobgarlik hosil bo'ladi? Tartibbuzar va jinoyatchilar tomonidan harbiy xizmatchilarining maxsus vositalarini noqonuniy egallab olish, ulardan foydalanish uchun qanday javobgarliklar belgilangan? Ushbu savollarga javobni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida quyidagi javobgarliklar belgilangan. Jinoyat kodeksining 37-moddasi "Zaruriy mudofaa" deb nomlanadi va uni quyidagicha yuqoridagi savollarning javobi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof

² 2020-yil 18-noyabrdagi qabil qilingan 647-sonli O'zbekiston Respublikasining "Milliy Gvardiya to'g'risida"gi qonuni

tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so‘rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o‘zga yo‘sinda qutulish imkoniyati bor-yo‘qligidan qat’i nazar, zaruriy mudofaa huquqi shaxsga tegishlidir.

Zarar yetkazish maqsadida qasddan hujum qilish istagini qo‘zg‘atish zaruriy mudofaa deb topilmaydi.

Milliy Gvardiya harbiy xizmatchisiga nisbatan ehtimoliy javobgarlik “*Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa*” deb baholanishi va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buni har qanday maxsus vosita qo‘llovchi harbiy xizmatchi va xodimlar bilib olishsa juda foydali bo‘lar edi.

Jinoyat kodeksining 38-moddasi “Oxirgi zarurat” deb nomlanadi va uni quyidagicha taqiqlovchi xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Buning asosiy sabablari esa, “*Oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o’sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.*

Shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, qonuniy deb topiladi.

Agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo‘lgan xavfning xususiyati va xavflilik darjasи, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi va yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinadi.³

Oxirgi zarurat chorasi xususiy jihatdan taqiqlangan holatlarni ham chetlab o‘tishga yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishga ham asos bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

Barchasini hisobga olib maxsus vositalar bilan bog‘liq faqatgina harbiy xizmatchilar uchun emas, fuqorolar uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Sababi maxsus vositalarni har qanday kishi ishlata olishi mumkin ekanligi. Shu o‘rinda o‘rinli savol to‘g‘ilishi tabiiy. Qanday qilib fuqoro maxsus vositalardan foydalanishi mumkin? Axir maxsus vositalardan foydalanish faqatgina qonunan ruxsat berilgan kishilargagina ruxsat etilganku. Qiziqarli holati shundaki agar tartibbuzar fuqoro agar maxsus vositalarni noqonuniy egallab olsa, avval Jinoyat kodeksining 251-moddasiga asosan. “*Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallah*” moddasi bilan ham jinoyat javobgarlikka tortilishi mumkin. Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o‘g‘rilik yoki firibgarlik yo‘li bilan qonunga xilof ravishda egallah⁴ orqali tartibbuzar o‘zining asosiy javobgarligini hosil qiladi va jinoiy javobgarlikka tortiladi va o‘sha harakat:

- a) takroran yoki xavfli retsidiivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o‘zlashtirish, rastrata qilish yoki mansab mavqeyini suiiste’mol qilish yo‘li bilan;
- g) talonchilik yo‘li bilan;
- d) tamagirlilik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.⁵

Xulosa qilib aytganda, maxsus vositalardan qonuniy asoslangan holda foydalish, yuzaga kelgan vaziyatning keskinligini hisobga olish va zaruriy mudofaa chorasi sifatida taqiqlangan holatlarda ham foydalanish imkonini berar ekan. Hattoki, taqiqlangan tana a’zolariga ham zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat sifatida ham zarba berish mumkin ekan. Buning huquqiy asosi esa aynan Jinoyat kodeksida aks ettirilganligini yoritib berishdan maqsad ham shu edi. Agar tartibbuzarlar harbiy xizmatchining maxsus vositalarini egallab olsa ham, ularni qo‘llash jarayonida ham bir nechta jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan nafaqat maxsus vositalarni qo‘llash asoslarini va holatlarini bilish balki, xizmat davomida mas’uliyatsiz va vaziyatni hisobga olmagan holda qo‘llaganda ham jinoiy javobgarlik hosil bo‘lshini va oxirgi chora qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligini ham bilishlari kerakligi juda katta foydali bilim sifatida baholash mumkin. Ma’lumki, maxsus vositalarni qo‘llash uchun maxsus ruxsatnoma va sertifikatsiz foydalanish harbiy xizmatchilar uchun taqiqlanadi. Ular avval uning nazariy bilimlar va qonuniy asoslarni o‘zlashtirishadi. O‘sha o‘qitish davomida Jinoyat kodeksidagi javobgarlik masalalarini ham o‘rgatish kerak. Fuqorolar uchun esa, harbiy xizmatchilarning maxsus vositalarini egallab olish, ulardan foydalanish ham jinoyat ekanligini ta’lim

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

muassasalarida belgilangan soatlarda aytib o‘tish, vedioroliklar tayyorlash, va tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. PF-27-son O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Konsepsiysi. 2021-yil 29-noyabr.
2. 22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan 647-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Milliy Gvardiya to‘g‘risida”gi qonuni.
4. LEX.UZ